

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

BADIY ASARDA XARAKTER YARATISH MAHORATI (Abduqayum Yo‘ldoshev asarlari misolida)

Rushana Zaripova,

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch
doktoranti*

Annotatsiya: Badiiy asarda xarakter yaratish masalasi doim dolzarb hisoblangan. Chunki, ijodkorning mahorati ham uning qahramon ruhiyatini to‘liq ochib bera olganligida, o‘z uslubini qay darajada ko‘rsata olganiga qarab baholanadi. Qolaversa, kitobxonga asar ruhiyatini singdirish, voqealar oqimiga olib kirish uchun ham muallifdan yuksak iste’dod talab qilinadi. Mazkur maqolada bugungi o‘zbek nasrining atoqli vakillaridan Abduqayum Yo‘ldoshevning xarakter yaratishdagi hamda badiiy san’atlar va detallardan foydalanish mahorati haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: detal, xarakter, obraz, portret, galyutsinatsiya, badiiy psixologizm.

Annotation: The issue of character creation in artistic works has always been considered crucial. The skill of the creator is evaluated based on how fully they can reveal the spirit of their character and to what extent they can show their style. On the other hand, a high level of talent is required from the author to immerse the reader in the spirit of the work and lead them into the flow of events. This article discusses the skill of Abduqayum Yo‘ldoshev, one of the leading representatives of today’s Uzbek prose, in creating characters and using artistic techniques and details.

Keywords: detail, character, image, portrait, hallucination, artistic psychologism.

Аннотация: Вопрос создания характера в художественном произведении всегда считался актуальным. Ведь мастерство автора оценивается по тому, насколько полно он раскрыл душу своего героя, насколько ярко он смог продемонстрировать свой стиль. С другой стороны, от автора требуется высокий талант, чтобы привлечь читателя к душе произведения, вовлечь его в ход событий. В данной статье говорится о мастерстве создания характеров и использования художественных приемов и деталей у одного из ярких представителей современной узбекской прозы Абдукаюма Юлдошева.

Ключевые слова: деталь, характер, образ, портрет, галлюцинация, художественный психология.

Insonning ruhiy dunyosini, uning his-tuyg‘u, fikr-mulohaza, xarakterini badiiy so‘z bilan tasvirlash ijodkordan yuksak mahorat talab etadi. Ayniqsa xarakter tasviri murakkab jarayon. Chunki, unda qahramonlar haqidagi batafsil taasurotni kitobxonga yetkazish uchun, obrazning ruhiyati, xarakter xusuiyati yetarlicha ochib berilishi lozim.

Xarakter aslida yunoncha atama bo‘lib, “iz”, “belgi”, “farqlovchi xususiyat” ma’nolarini beradi. Badiiy xarakter esa, muayyan davr va muhit kishilariga xos eng muhim umumiyl xususiyatlar bilan alohida shaxsga xos individual xususiyatlarni o‘zida mujassam etgan inson obrazidir. [5:352]

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Psixologizm esa, kishilarning ichki dunyosiga, ularning latif-zarif tomonlari va go‘zalligiga yaxshi e’tibor qilish to‘g‘risida jiddiy o‘ylab ko‘rish fursati yetdi. Bu yozuvchilik mahoratining eng muhim jihatidir. [1:277]

Hozirgi o‘zbek nasrida A.Yo‘ldoshev iste’dodli ijodkorlardan biri sifatida qalam tebratmoqda. Asarlarida qahramon ruhiyatiga yanada chuqur kirish, badiiy psixologizmnning yangicha tasviriy vositalaridan foydalanib, ramziy-psixologik timsollar, to‘qima obrazlar yaratilganini ko‘ramiz.

Biz tahlilga tortmoqchi bo‘lgan muallifning “Sunbulaning ilk shanbasi”, “Timsohning ko‘zyoshlari”, “Otchopar yoxud o‘n uchinchi uy”, “Gudbay, Amerika”, “Shoirning muhabbat” qissalarida turfa xil taqdirlar, qahramonlarning o‘ziga xos xarakterlari, psixologiyasi, kechinmalariga guvoh bo‘lamiz. Yozuvchi qissalarida insonning ruhiy kechinmalari ishonarli va ta’sirchan ochib berilishi diqqat markaziga qo‘yiladi. Qahramonlarning o‘y-kechinmalari, dard-tashvishlari o‘quvchini befarq qoldirmaydi.

Yozuvchining “Otchopar yoxud o‘n uchinchi uy” qissasida yolg‘onchilik, firibgarlik, baxillik qurboni bo‘lgan bosh qahramon Nozimaning hayoti, asar boshida g‘ayratli, shijoatli bo‘lgan ayolning asar so‘ngida ayanchli taqdiri, iztiroblari, dard-u alami, adabiy gallyutsinatsiyaga uchragan jarayoni muhokama etiladi. Nochorlik, qo‘li kaltalik insonni tuynugi yo‘q qorong‘ulik qa’riga tashlashi ishonarli tasvirlangan. Asar roviy tilidan hikoya qilinadi. Noxushlik uyg‘otuvchi peyzaj bilan boshlangan asar oxiri ham shu kayfiyat bilan yakun topadi. Qahramonlarning ruhiy fojiasi, shu fojiaga olib borgan sabablar yuqori pafos bilan ifodalangan. Ishonch, vafo, do‘slik omonat ekanligi fosh etiladi. Nozima obrazi uning atrofidagi shaxslar xarakteri, o‘zaro munosabatlari orqali yanada ochib berilgan. Uning dugonam deb ishongani - Flora, moddiy qo‘llab-quvvatlagan, yordam bergen qo‘shnisi Osiyo opa unga vafo qilmadi.

Uning maqsadi, keksa ota-onasi, nogiron singlisiga yordam berish, jondan aziz turmush o‘rtog‘i Samad bilan uy olib baxtli yashash edi. Lekin, atrofidagi odamlar, tashqi muhit bunga yo‘l bermadi. Nozima ruhiyatida mehr-oqibat, qon-qarindoshlik singari insoniy hislar bilan birga ishonuvchanlik, maqtanchoqlik kabi tuyg‘ular yashaydi.

A.Yo‘ldoshev shu paytgacha yaratgan qahramonlarini ideal inson sifatida tasvirlamaydi. Yozuvchi qissalarida qahramon ruhiyatini ochishda, portret, qarama-qarshi tuyg‘ular kolliziyasi yetakchilik qiladi. Natijada ijodkor ruhiy tasvirda ishonarli obrazlar, xarakterlar yarata olgan. Muallif asarlarida ichki monologning badiiy-g‘oyaviy jihatdan monolog-muhokama, monolog-xotira, monolog-kechinma, monolog-orzu, monolog-xayoliy-suhbat turlari ham uchraydi. Xarakterlarning xatti-

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

harakatlari psixologik jihatdan asoslangan. Qahramonlarining ruhiy holatini psixofiziologik belgilar orqali ochadi. Yozuvchining uslubiga xoslik shundaki, u aksar qahramonlarini ismsiz qo‘llash orqali kitobxonning psixologiyasiga kuchli ta’sir qiladi. Natijada kitobxonning asar qahramoni o‘rniga o‘zini qo‘yib ko‘rish imkoniyati, “men”lik ta’kidi ortadi.

A.Yo‘ldoshevning qissa va hikoyalaridagi aksariyat qahramonlari gallyutsinatsiya kasaliga chalinishgan va bu kitobxonda obrazlar bir-birini takrorlayotganday taassurot uyg‘otadi. Tadqiqotchi N.Shodiyev gallyutsinatsiya kasaliga chalinish sabablari haqida shunday deydi: “Ma’lum bir ijtimoiy, maishiy sabablar, og‘ir sharoit va murakkab vaziyatlar tufayli kishilar ana shu ruhiy xastalikka yo‘liqishadi. Ba’zilari tabiatan shu majruhlikka moyil bo‘lsa, ayrimlari ilojsizlikdan, muqarrar fojeasini his etgan holda boshqa ilinjning yo‘qligiga ishongach, umidsizlikdan shu og‘ir kasalga mubtalo bo‘lishadi.[2:41] Bu holatga tushgan shaxs ba’zida og‘ir ruhiy holatdan chiqib keta olmay o‘z joniga, yoki o‘zganing joniga qasd qilishi yoki telba bo‘lib qolishi mumkin. Aynan shu holatlar A.Yo‘ldoshev asarlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. “Puankare”da o‘qituvchi, “Otchopar yoxud o‘n uchinchi uy”da Nozima, Osiyo opa, “Timsohning ko‘z yoshlari”da Munisa, “Gudbay, Amerika”da Xolmirza obrazlarini shular sirasiga olish mumkin.

Abduqayum Yo‘ldosh ba’zi obrazlarini kitobxonga yaxshilab tanishtirish, uning xarakterini ochib berish uchun portretdan unumli foydalanadi. “Otchopar yoxud o‘n uchinchi uy”da Osiyo opa portretini quyidagicha tasvirlaydi:

“To‘rtinchi qavatda yashovchi, novchagina, oriqqina bo‘lsa-da, mudom qopday keng burma ko‘ylak kiyib, quruq va oq aralshgan sochlarini orqaga silliq taragancha dog‘ bosgan peshonasini ko‘z-ko‘zlab yuradigan, qoracha serajin yuziga umuman upa-elik yaqinlashtirmasligi boismi yoshiga nisbatan katta va qahrli ko‘rinadigan, “poliz qo‘riqchisi” laqabini olgan Osiyo opa ayni paytda bir so‘m ustida o‘lib qoladigan ziqna ayollar toifasidan edi”.[3:93] Chilangarlik qiladigan erini qarg‘ab charchamas, uni boshqalarday biznesmenlik qilib jaraq-jaraq pul topolmayotgani uchun bo‘shangdan olib lapashangga solardi.

Osiyo opaning xarakteriga xos ichiqoralik, hasadgo‘ylik, adovatchilik kechinmalar orqali roviy tilidan mahorat bilan ochiqlangan:

“...o‘zini beayov toptashgan, xo‘rlashgan bu yig‘indan so‘ng besabrilik ila intiqom onlarini kutishga o‘tdi. Ehtimolki ana shu ilinj ta’sirida chamasi uch kunlar o‘tib, yangi sotib olingan belgiya gilami sharafiga berilgan kichkinagina ziyofat mahali nomiga tishining oqini ko‘rsatib o‘tirgan Osiyo opa qo‘y go‘shtiga qilingan bir kosa qaynoq qaynatma sho‘rvaga qo‘shib bir likopcha po‘sti archilgan pomidorni go‘yoki bexosdan stoldan ag‘darib yuborib, yangi gilamni rasvo qilarkan, o‘xshatib

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

alamini ololgani bois hatto oyog‘i kuyib qolganini ham sezmaydigan darajada rohat-farog‘at og‘ushiga g‘arq bo‘ldi. Ertasi kuni kuygan o‘rinlarda paydo bo‘lgan pufakli shishlar yaraga aylanganida ham opa vujudida hech bir og‘riq tuymadi, bilaks, barmoqlarini shaqillatib o‘ynab ketishdan o‘zini bazo‘r tiyib yurdi”. [3:108]

Yoki Nozima portreti: “Chamasi o‘ttiz yoshlardagi, siymin tan, ancha-muncha o‘rinlari ochiqroq tor liboslarda do‘mboq qomatini ko‘z-ko‘zlaganday sallona-sallona qadam tashlaydigan, bos ustiga andaqqina ishva-yu noz aralash ohangda tantiqlanibroq so‘ylayotgan mahali xumor ko‘zlarini suhbatdoshidan uzmay turishi-yu bexosdan yelkalarini uchirib, shirin xomuza tortib qo‘yishlarimi yoxud upa-elikning haddan ortiqroqligimi, ishqilib, nimasi bilandir ayrim og‘zi-yu telba xayolotiga kuchi yetmagan ojiza hamsoyalar ko‘nglida sal dudmalroq gumonlar uyg‘onishiga-da yo‘l ochib bergen Nozimaxon yangi zamonning yangi ayollaridan, ya’nikim otchoparning beli baquvvat sohibalaridan edi.” [3:96]

Roviy Nozimaning ahli tijoratga xos betgachoparligi, ancha-muncha sharttakilik fe‘li-ho‘yiga singib ulgurganligini ham alohida ta’kidlab o‘tadi. Ammo Nozima tilidan aytilgan mana bu iqroriga e’tibor qiling:

“...shunda dir-dir titrayotgan Nozimaning ko‘zlaridan yosh quyildi,-opa, to‘g‘ri, men yomon xotinman, o‘zimga, boshqa xotinlarga yaxshi bo‘lsin deb yolg‘on ham gapirib turaman, chunki tinchgina, yaxshi yashagim keladi, lekin otamni, singlimni, jiyalarimni o‘rtaga qo‘yib qasam ichaman, shu kungacha mening badanimga Samadjon akamdan boshqa bironta erkakning qo‘li tegmagan! Xudo xohlasa, bundan keyin ham tegmaydi! Anavi iflos, onasining arvohini o‘rtaga qo‘yishdan or qilmagan to‘ng‘izingizga aytib qo‘ying, borib boshqa birovning etagini poylasin, menga egalik qilishni xayoliga ham keltirmasin!”[3:154] Hozir ahvolim og‘ir, tan olaman, juda og‘ir. Lekin bundan battar kunlar ham boshimga tushgan, o‘shanda ham qutulib ketganman. Men Rossiyaning qirq darajali sovuqlarida ko‘chada o‘tirib paypoq sotganman, buyragimni sovuqqa oldirib qo‘yib yarim jon bo‘lib qolganman, operatsiya payti u yoqqa ketishimga sal qolgan, o‘shanda biz boshqa bir mamlakatning qor ko‘mib tashlagan begona bir ko‘chasida bir tiyinsiz qolib ketganmiz, shunda ham xiyonat qilishni xayolimga keltirmaganman. Er-xotin idish-tovoq yuvganmiz, sassiq omborxonada, kalamushlar orasida uch kecha-kunduz chirigan karam yeb yotganmiz, lekin qaytish pulini halol ishlab topganmiz, o‘g‘irlik qilmaganmiz, g‘arlik qilmaganmiz. Kelib-kelib endi yomon yo‘lga kiramanmi?! Mana ko‘rasiz, opa, men ishlayman, Samadjonim ishlaydi, biz bu botqoqlikdan chiqib ketamiz. Hali bizning ustimizdan kulmoqchi bo‘lganlarning o‘zлari sharmanda bo‘lib qolishadi. Mana ko‘rasiz! Mana ko‘rasiz! Siz bo‘lsa meni olib borib anavi iflosning sassiq qo‘yniga tiqmoqchisiz. Bir sizmas, sezib yuribman, keyingi paytlarda

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

boshqa qo‘slnilar ham meni ahmoq bilibmi, menga yordam berishi mumkin bo‘lgan qandaydir odamni maqtab qo‘yishadi, o‘shaning oldiga chopib borishim kerakligini uqtirmoqchi bo‘lishadimi-yey. Axir...axir bu ...bir odamni bo‘ynidan sudrab boshqaning to‘sagiga olib borib tashlash qo‘shmachilik emasmi? Uyat emasmi? Sharmandalik emasmi...” [3:155]

Asar boshida qahramonimizning xatti-harakatlaridan uni ayplashga, Osiyo opa ta’biri bilan aytganda yengiltak bozorchi ayollardan biri deb hukm chiqarishga shoshtagun kitobxon, Nozmaning psixologiyasi, portreti namoyon bo‘lgan ichki kechinmalarini o‘qiganda, albatta, u haqidagi tasavvurlari, munosabati o‘zgaradi.

Qo‘ziboy-Qoraboy va Nozima voqealari Osiyo opaning kimligini ko‘rsatadi: U o‘z huzuri uchun o‘zganing insonlik sha’nini toptab o‘tishdan ham qaytmaydigan xudbin, pastkash ayl!

“Timsohning ko‘z yoshlari” voqealari hikoyachi tilidan bayon qilinadi. Syujet voqeasini boshlab beruvchi vosita tush motividir. Yozuvchi tomonidan asosiy e’tibor qahramonlar psixologiyasiga, ichki kechinmalariga qaratilgan va bu orqali jamiyatdagi befarqlik, xudbinlik, jur’atsizlik kabi illatlar ham qoralangan. Qissaning syujeti voqealari markazida bosh qahramon Munisaning achinarli taqdiri, qayg‘uga to‘la kechinmalari turadi. Munisa o‘ta sodda, ishonuvchan hatto o‘z hayotini boshqarolmaydigan, taqdirini boshqalar hal qilishiga, uning uchun qarorlar qabul qilishiga jim ko‘nadigan, haq-huquqini bilmaydigan qiz. Uning holati, ichki kechinmasi ta’sirchan gavdalantirilgani bois darhol kitobxonning e’tiborini tortadi. Munisa jamiyatdagi bu toifa ayollarning umumlashma obrazi, nazarimda.

Salbiy qahramon, Munisaning hayoti izdan chiqishiga sababchi bo‘lgan Salomat opa xarakteri dastlab muallif tomonidan quyidagicha ta’riflanadi:

“Beo‘xshov semirib ketgan, yo‘lakka chiqib kelsayam, darrov hansirab, yuragidan, shikoyat qilaveradigan ellik yoshlardagi, lekin mudom tili-yu dilidan tushmaydigan hasrat ong ila vujudini og‘ulab ulgurgani sabablimi yanada qarimsiq ko‘rinadigan, nimasi bilandir uzib, paykalda qoldirib ketilgan, kun urib, sarg‘imtr tusga kirgan, ichi pishib ketgan kattakon qovunni eslatadigan bo‘lim mudirasi” [5:5]

“...biron xodim andakkina bepisandroq salom bergen yoxud maqolasini xushlamayroq tutib ketgan bo‘lsa, xudo urdi deyavering-opa bu sho‘rlikning ijod namunasini to‘ppa-to‘g‘ri ma’noda tagiga bosib olgancha odatdagi mashg‘ulotini davom ettiri-ib o‘tiraveradi”[3:6]

Muallif tomonidan chizilgan portret orqali asar qahramonlarinig ruhiyati, xarakteri haqida tasavvurga ega bo‘lamiz. Asar davomida esa ushbu qahramonning ichki va tashqi ko‘rinishi uyg‘unlikda tasvirlab boriladi.

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Voqealar rivojida qahramonlar xarakteri, psixologiyasi hikoyachi tomonidan ichki kechinmalarni bayon qilish orqali olib boriladi. Syujet chizig‘ida tush motivi yetakchilik qiladi. Tush sababidan Munisaning taqdiri butkul o‘zgarib ketadi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkin, A.Yo‘ldoshev qissalarida qahramonlarning qalb kechinmalari tahlili asosiy o‘rin tutadi. Qissalardagi o‘xshashliklar, takrorlar, ba’zi o‘rinlardagi qahramonlarning ishonarsiz qiyofasi kitobxonni zeriktirib qo‘yadi.

Adabiyotlar:

1. A.Qahhor. Tanlangan asarlar. VI tom, Toshkent-1971
2. A.Shodiyev N.Ruhiyat rassomi.Toshkent:Fan,1977.
3. A.Yo‘ldoshev. Timsohning ko‘z yoshlari. Toshkent-2003.
4. A.Yo‘ldosh. “Puankare”. Hikoyalar. Toshkent—“Akademnashr”, 2022-y.
5. Yo‘ldoshev A. “Mashaqqatlar osha yulduzlar sari”. Hikoyalar. Toshkent- 2021.
6. Quronov D. va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug‘ati. Toshkent-2013.
7. Boboyev T. “Adabiyotshunoslik asoslari”. T: “O‘zbekiston”. 2002-y.
8. М.Абдураҳмонова, “Руҳий дунё тасвири”- “Ўзбекистон” нашиёти, Тошкент -1977.
9. И.Султон. Адабиёт назарияси. Тошкент, “Ўқитувчи”– 1986-й.
10. Умurov X. Адабиёт назарияси. Дарслик. Т., “Шарқ”-2002.